

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM
SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN O'ZGARISHLAR

Qosimov Adhamjon

FJSTI, Ijtimoiy fanlar kafedrasi assistenti.

Jalolidinov Muhammadjon G'ulomjon o'g'li

FJSTI, Pediatriya fakulteti Pediatriya yo'nalish 1-kurs talabasi.

muhammadjonjalolidinov8@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1551277>

Annotatsiya. Ushbu ishda mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida ta'lism sohasida amalga oshirilgan asosiy o'zgarishlar tahlil qilinadi. Mustaqillikdan so'ng ta'litmizimi milliy mustaqillik va zamonaviylik tamoyillariga asoslanib qayta tashkil etildi. Ta'litmazmuni milliy qadriyatlar bilan boyitildi, darsliklar va o'quv dasturlari qayta ishlab chiqildi.

Shuningdek, ta'lism sifatini oshirish, pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. So'nggi yillarda ta'limda axborot texnologiyalari keng joriy etilib, onlayn va interaktiv ta'lim shakllari rivojlandi. Ushbu jarayonlar yosh avlodni milliy o'zligini anglashi va zamonaviy bilimlar bilan qurollanishiga xizmat qilmoqda.

Kalit so'zlar: Ta'lim islohotlari, ta'lim sifati, ta'lim dasturlari, axborot texnologiyalari, raqamlı ta'lim, ta'lim siyosati, oliy ta'lim, maktab ta'limi.

CHANGES IMPLEMENTED IN THE EDUCATIONAL SPHERE IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Abstract. This paper analyzes the major reforms carried out in the field of education in the Republic of Uzbekistan during the years of independence. Following independence, the education system was restructured based on national identity and modern standards. The content of education was enriched with national values, and curricula and textbooks were revised. Special attention was given to improving the quality of education and enhancing the qualifications of teaching staff. In recent years, the introduction of information technologies and the development of online and interactive learning methods have further modernized the system. These reforms aim to equip the younger generation with both national identity and globally competitive knowledge.

Key words: Education reforms, quality of education, educational programs, information technologies, digital education, education policy, higher education, school education.

Kirish

Ta’lim islohotlari (Education reforms) - bu ta’lim tizimini zamon talablariga mos ravishda qayta tashkil etish, muammolarni bartaraf etish, va sifatli bilim berish tizimini yaratishga qaratilgan o‘zgarishlardir. 1997-yilda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilindi. So‘nggi yillarda maktablar 11 yillik ta’lim tizimiga o‘tkazildi. Har bir hududda Prezident maktablari, ijod maktablari tashkil etildi. Agar ilgari o‘quvchilar faqat nazariy bilim olsa, bugungi islohotlar bilan ularning amaliy ko‘nikmalari ham rivojlanmoqda (masalan, robototexnika, STEAM fanlari).

Ta’lim sifati (Quality of education) - o‘qitish samaradorligi, bilimlarning hayotda qo‘llanishi, o‘quvchi va talabalarning rivojlanish darajasidir. “PISA” xalqaro baholash tizimiga qo‘shilish orqali ta’lim sifatini baholash ishlari boshlangan. O‘qituvchilar attestatsiyasi va sertifikatlash tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Birinchi Prezident maktablari yuqori sifatli ta’limning namunasi bo‘lib, ularda zamonaviy laboratoriylar, IELTS tizimiga tayyorgarlik kabi xizmatlar mavjud.

Ta’lim dasturlari (Educational programs)-bu fanlarning mazmuni, darsliklar, o‘quv rejalarini va metodikalardan iborat tizim. Darsliklar har 5 yilda qayta ko‘rib chiqiladi. STEM, IT, moliyaviy savodxonlik kabi yangi fanlar joriy etilmoqda. Ilgari faqat algebra va geometriya o‘rgatilgan bo‘lsa, hozir algoritmik fikrlash, dasturlash asoslari maktablarda o‘qitilmoqda.

Axborot texnologiyalari (Information technologies)-bu kompyuterlar, internet, multimedia qurilmalari yordamida ta’lim jarayonini samarali tashkil qilish vositalari. “Elektron maktab” platformasi, “Edu.uz” portali ishga tushirilgan. Dars jarayonlari uchun interaktiv doskalar, elektron kundaliklar (my.maktab.uz) joriy etilgan. Pandemiya davrida o‘quvchilar Zoom va Telegram orqali darslarda ishtirok etdi, bu texnologiyalarni o‘zlashtirish zarurligini ko‘rsatdi.

Raqamli ta’lim (Digital education)-bu internet va raqamli vositalar orqali bilim olish shaklidir. Masofaviy ta’lim, onlayn kurslar, video darslar bunga kiradi. “UzEdu” telekanali orqali darslar efirga uzatildi. Onlayn imtihonlar, virtual kutubxonalar joriy qilindi. Talabalar Coursera, EdX kabi xalqaro platformalarda ham onlayn kurslar o‘tayotganlari raqamli ta’lim imkoniyatlaridan biridir.

Ta’lim siyosati (Education policy)-davlat tomonidan ta’limga oid yo‘nalishlar, qonunlar, strategiyalar, islohotlar tizimi. 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan “Ta’limni rivojlantirish strategiyasi” ishlab chiqilgan.

Chet tillarni o‘qitish siyosati kuchaytirilgan.Prezident qaroriga muvofiq, har bir maktabda ingliz, nemis yoki fransuz tili o‘rganilishi majbuliy bo‘ldi.

Oliy ta’lim (Higher education)-bu o‘rta maktabdan keyingi bosqich bo‘lib, universitet, institut va akademiyalarda olib boriladi.So‘nggi yillarda ko‘plab xorijiy universitetlarning filiallari ochildi (masalan, Webster University, Turin Polytechnic University).Kredit-modul tizimi joriy etilgan.Talaba endi o‘z fanlarini tanlaydi, mustaqil ishlar soni oshirilgan, bu esa uning ijodiy fikrlashiga xizmat qiladi.

Maktab ta’limi (School education) - boshlang‘ich va o‘rta umumiy ta’lim bosqichlari bo‘lib, 1-sinfdan 11-sinfgacha davom etadi. 6 yoshdan boshlanadigan boshlang‘ich ta’lim joriy etildi. Har bir maktabda zamonaviy kutubxonalar, sport zallari, IT sinflari tashkil qilinmoqda.

Maktab o‘quvchilari endi nafaqat dars o‘qishadi, balki tadbirkorlik, robototexnika kabi qo‘sishchiliklari to‘garaklarda qatnashishadi.

Xulosa:

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida ta’lim tizimi chuqur va izchil islohotlarga duch keldi. Amalga oshirilgan ta’lim islohotlari natijasida ta’lim sifati oshdi, darsliklar va o‘quv dasturlari yangilandi, hamda ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalari keng joriy etildi. Raqamli ta’limning rivojlanishi natijasida o‘quvchilar va talabalar uchun masofaviy o‘qish imkoniyatlari yaratildi.

Ta’lim siyosati milliy va xalqaro talablarga moslashtirilib, maktab va oliy ta’lim muassasalari faoliyati tubdan takomillashtirildi. Ayniqsa, yosh avlodga zamonaviy bilimlar berish, ularni mustaqil fikrlaydigan, raqobatbardosh shaxs sifatida tarbiyalash bugungi ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir.

Yurtimizda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar xalqimizning farovon kelajagini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES):

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.(Ta’lim, tarbiya va yoshlar masalalariga bag‘ishlangan, mustaqillik yillaridagi asosiy g‘oyaviy yo‘nalishlar yoritilgan).
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom – taraqqiyot poydevori. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
3. Yuldashev M., Qodirov A. Pedagogika: Nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2020. (Ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar, islohotlar va pedagogik qarashlar yoritilgan)

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sohasiga oid farmon va qarorlari to‘plami. – Toshkent: Adolat, turli yillar.(Ta’lim tizimidagi huquqiy asoslar bayon etilgan)